

*SODIQOVA NARGIZA
NASRI QIZI,*

UNIVERSAL VALUE OF INTERNATIONAL PEACE
AND SOLIDARITY

*BOBOJONOVA FERUZA
HAYOTOVNA*

ВСЕОБЩАЯ ЦЕННОСТЬ МЕЖДУНАРОДНОГО
МИРА И СОЛИДАРНОСТИ

MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIK
UMUMBASHARIY QADRIYAT



BUKHARA STATE
UNIVERSITY
2ST YEAR MASTERS

BOBOJONOVA FERUZA –
SUPERVISER,
ASSOCIATE PROFESSOR

Abstract. The article describes the existing national and cultural centers in Bukhara region and their activities. Today, according to sources, the state provides financial support to the centers. The specific traditions, holidays of national-cultural centers and their role in our society were also discussed.

Key words: House of Friendship, National-Cultural Center, Wiedergeburt, Oftobi Sogdian, vasserval, sochelnik, Svetlitsa Polska, yaselki, khinkal, shabit

Аннотация. В статье рассказывается о существующих национально-культурных центрах Бухарской области и их деятельности. Сегодня, по словам источников, государство оказывает финансовую поддержку центрам. Также обсуждались специфические традиции, праздники национально-культурных центров и их роль в нашем обществе.

Ключевые слова: Дом дружбы, национально-культурный центр, Видергебурт, Согдийское Солнце, вассервал, сочельник, Светлица Польская, Яселки, хинкал, шабит

Annotasiya. Maqolada Buxoro viloyatida mavjud milliy-madaniy markazlar va ularning faoliyati yoritilgan. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan markazlarning moddiy qo'llab-quvvatlanayotganligi manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, milliy-madaniy markazlarning o'ziga xos an'analari, bayramlari va ularning jamiyatimizda tutgan o'rni masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Tayanch atamalar: Do'stlik uyi, milliy-madaniy markaz, Wiyedergeburt, Oftobi So'g'diyon, vasserval, sochelnik, Svetlitsa Polska, yaselki, xinkal, shabit.

-Kirish (INTRODUCTION)

Milliy-madaniy markazlar - turfa millat va elatlarning urf-odat, qadriyatlarini birlashtiruvchi o'ziga xos ma'naviyat maskani. Viloyatimizda o'ndan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ular turli millat vakillarining shu muqaddas zaminda bir tan-u bir jon bo'lib yashashlari, mehnat qilishlari uchun o'z xizmatlarini ayamayaptilar. Rus, koreys, tatar-boshqird, yahudiy, nemis, turkman, tojik, qozoq, ozarbayjon, turk millati vakillari uzoq yillardan buyon Buxoro tuprog'ida umrguzaronlik qilishmoqda. Ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishlari, qiziqish va layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, o'ziga xos madaniyati, dini, urf-odatlari va an'alarini saqlash hamda rivojlantirishlari uchun sharoitlar yaratilgan. Barcha millat vakillarining davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarda erkin ishtirok etishi bosh qomusimiz va qonunlarimizda kafolatlangan.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (LITERATURE REVIEW)

Tadqiqot ishini tayyorlashda me'yoriy hujjatlar, gazeta nashrlari, ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqoti materiallaridan foydalanildi. Ushbu mavzuni o'rganish va tadqiq etish jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni birlamchi manba hisoblanib, milliy-madaniy markaz haqida dastlabki tushunchalar va uni tashkil etish tartiblari asoslangan. I.Safarovning "Wiyedergeburt hamkorlikka chorlaydi" nomli maqolasida nemis milliy markazi va uning faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Qurbon Itolmasovning "Shijoat va fidokorlik bilan" maqolasida turkman milliy madaniy markazining faoliyati va turkmanlarning urf-odat va an'analari haqida so'z yuritilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar
2. Monografiya, maqola va ilmiy to'plamlar
3. Dala tadqiqoti materiallari

-Tadqiqot metodologiyasi (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi umumlashtirish, tarixiylik tamoyili, xronologik, qiyosiy tahlil va dala tadqiqot usullariga asoslanadi.

-Tahlil va natijalar (ANALYSIS AND RESULTS)

O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, miliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirishga xizmat ko'rsatuvchi 138 ta milliy-madaniy markaz, shuningdek, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan aloqalarini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shayotgan 34 ta do'stlik jamiyati muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Buxoro viloyatida mavjud 11 ta milliy-madaniy markaz ham so'nggi

yillarda yaratilgan sharoitlar, berilayotgan e'tibor natijasida bir qator yutuqlarga erishmoqdalar va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng bag'rikenglik, hamjihatlikka keng yo'l ochib berildi. Zero, bag'rikenglik, hamjihatlik xalqimizga xos azaliy qadriyatlardan hisoblanadi. U muayyan jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari ahilligining ma'naviy asosini mustahkamlaydi, shu hududdagi tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ayni kunda viloyatimizda o'ttizga yaqin millat vakillari ahil-inoq yashab, har jabhada mehnat qilmoqda, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmoqda. Ularning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashlari, boyitishlari uchun hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Zero, insonlar orasidagi o'zaro hurmat muhiti, ular qaysi tilda so'zlashishidan qat'iy nazar O'zbekiston deb atalgan umumiy uyimizda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning muhim asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatni oqilona boshqarish sohasida O'zbekiston juda katta tajriba to'plagan bo'lib, bu borada u dunyodagi qator davlatlar uchun ibrat va namuna bo'lib kelmoqda. Mazkur yo'nalishdagi islohotlar samarasi sifatida Buxoro shahrida 2021-yil 30-iyul kuni "Nodavlat notijorat tashkilotlar va Do'stlik uyi" ochilganligini alohida ta'kidlash joiz.[1] Mazkur binoda milliy-madaniy markazlarimizning faoliyat yuritishlari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishlari, o'z ona tillari va boshqa fan to'garaklarini tashkil etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, 2021-yildan boshlab milliy-madaniy markazlarga grant loyihalarida ishtirok etish, maosh olish imkoniyati berilganligi markaz a'zolari uchun quvonarli hodisa bo'ldi. Bunday e'tibor tufayli viloyatimizda faoliyat olib borayotgan o'n bitta milli-madaniy markazlarning jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an'analarni ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish borasidagi faoliyati yanada jonlandi, yangi tashabbuslar bilan boyidi. [2]

O'zbekiston Koreys madaniyat markazi Buxoro viloyat hududiy bo'linmasi tashkil topganiga 30 yildan oshdi. Markaz "Do'stlik uyi"da joylashgan. Ayni paytda markazda 21 nafar a'zo bo'lib, asosan keksa ayollardan iborat. Markaz koreyslarning milliy madaniyati, tili va an'analari bilan tanishtirish, fuqarolarning faolligi, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini oshirish, do'stlik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, milliy madaniyatlarni o'zaro boyitishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Ko'p millatli viloyatimizda ayni paytda koreys millatiga mansub 1832 nafar aholi vakili istiqomat qiladi. Ular viloyat hayotining barcha jabhalarida faol mehnat qilib, yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Markaz rahbari Li Rodion Cheryenovich rahbarligida davra suhbatlari, millat vakillari bilan uchrashuvlar va tadbirlar, do'stlik festivallarida doimiy ishtirok etishadi. [3]

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan "Wiedergeburt" ("Tiklanish") nemis milliy-madaniy markazi 1995-yil 24-yanvarda tashkil etilib, ro'yxatdan o'tgan. Bugungi kunda markazning 100 nafar a'zosi markaz faoliyatiga jalb qilingan. Markaz o'z oldiga o'troqlashib qolgan mahalliy nemis aholisining boshlarini birlashtirish, milliy an'analarni, urf-odatlarini, qadriyatlarini, san'ati va madaniyatini tiklashni maqsad qilib qo'ygan. Nemis mentalitetining o'ziga xos xususiyati - tartib-

intizom, aniqliq, mas'uliyat va qonunga bo'ysunish, shuningdeq shaxsiy hayotga biroz ko'proq e'tibor qaratilishi bilan belgilanadi.[4] Myehmondorchilikka taklif qilishning o'zi alohida hurmatning namoyoni hisoblanadi, ogohlantirmasdan kelish esa eng yomon xulq-atvor sanaladi va bu hatto yaqin qarindoshlarga ham tegishli. Kechki soat 20 dan keyin uzrli sababsiz qo'ng'iroq qilish mumkin emas. Tuz so'rab qo'shni xonadonga kirish nemislar uchun shunchaki bema'nilikdir. Nemislar o'zlarining milliy bayramlari- Rojdestvo va Pasxa kabilar qatorida bizning bayramlarimizni ham katta xursandchilik bilan nishonlaydilar. Markaz qoshida tashkil etilgan "Vasserval" yoshlar klubi hamda mahalliy nemis yoshlaridan iborat ansambl viloyatimiz markazida o'tkazilayotgan Navro'z, Mustaqillik bayramlari tantanalarida muvaffaqiyatli ishtirok qilmoqda. Umuman olganda, markaz jamiyat hayotida faol ishtirok etib, Buxoroda istiqomat qiluvchi xalqlar o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirish va mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda. [5]

Ozərbayjon milliy madaniy markazi Buxoro viloyat bo'limi bundan 28 yil avval O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan tashkil etilgan. Markaz Buxoro viloyati Kogon shahrida joylashgan. Viloyat Ozarbayjon milliy-madaniy markazi o'z safiga viloyatimizda yashayotgan Ozarbayjon millatiga mansub ikki mingdan ziyod aholi vakillarini birlashtiradi. Mazkur nodavlat notijorat tashkilot yurtimizda ozar tili va madaniyati, urf-odatlarini saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilgan. Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan Ozarbayjon milliy-madaniy markazi a'zolari Kamran Babayev boshchiligida barcha xohlovchilar uchun ozarbayjon tilini o'rganish kurslari, raqs to'garaklarida faollik ko'rsatmoqdalar. Amaliy san'at va milliy taomlar ko'rgazmalarini o'tkazish an'anaga aylangan. Ozarbayjon taomlari orasida "do'lma" juda mashhur bo'lib, u 2017-yilda YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Viloyat tadbirlari, shahar festivallari va bayramlarda markazda tashkil etilgan "Ozarbayjon go'zallari" raqs guruhi faol ishtirok etadi. [6]

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan o'tkazilgan tanlovda jamiyat millatlararo bag'rikenglik, tinchlik, o'zaro mehr-oqibat va do'stlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan loyihasi bilan ishtirok etib, 30 million so'mlik grantni qo'lga kiritgan edi. Yaqinda esa fond tomonidan o'tkazilgan tanlovda 40 million so'mlik grantni qo'lga kiritdi. Grant loyihasi asosida ajratilgan mablag' markazning ko'plab xayrli rejalarini ro'yobga chiqarish bilan bir qatorda, milliy-madaniy markaz faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.[7]

Turk milliy-madaniy markazi 1993-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda Buxoro shahar "Do'stlik uyi"da faoliyat olib boradi. Markaz a'zolari to'qqiz kishidan iborat. Har yili turk milliy qadriyatlarini saqlash va targ'ib qilish bo'yicha madaniy markaz rahbari Shukurov Juma Kotibovich boshchiligida turli tadbirlar, davra suhbatlari, konsertlar tashkil qilinadi. Bugungi kunda Buxoro viloyatida 4000 ga yaqin turklar istiqomat qilib kelmoqda. Markaz to'ylar, marosimlar va bayramlar orqali turk millatiga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analarni avloddan-avlodga yetkazishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Turk milliy taomlariga keladigan bo'lsa ular juda ham rang-barang va mazali. Ayniqsa "xinkal", "bozlama", "xachapur" "tuta-shurva" va shunga o'xshash ko'plab mazali taomlarni keltirish mumkin. Bugungi kunda turk pazandachiligida mashhur va sevimli bo'lgan resyepnlarning

aksariyati Usmonli imperiyasi davrida ixtiro qilingan. To‘ylari ham ajoyib, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, turklarda yangi kelinning qay darajada pazanda ekanligini sinovdan o‘tkazish uchun unga “xinkal” taomini pishirtirish udumi juda mashhur va haligacha saqlanib kelmoqda. Bunda kelin turkcha xinkal taomini o‘choqda pishirishi kerak va shu xinkal bilan birinchi bo‘lib qaynona va qaynotasini mehmon qilishi kerak. [8] Markaz qoshidagi "Axisxa" ansambli 2004-yildan boshlab Murat Shayimov rahbarligida faoliyat olib boradi.

Qozoq milliy-madaniy markazi 2017-yil tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda Buxoro shahar “Do‘stlik uyi”da joylashgan. Buxoro viloyatida 16510 ga yaqin qozoq millatiga mansub kishilar o‘z tillarida so‘zlashadilar. Qozoq milliy madaniy markazi qozoq xalqiga xizmat ko‘rsatadi. 12000 nafar qozoq millatiga mansub insonlar o‘z tilida ravon so‘zlasha oladi. Markazning asosiy maqsadi qozoq milliy madaniyatini, urf-odatlarini va an‘analarini saqlab qolish va targ‘ib qilishdan iborat. Markaz Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani 2-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. [9] Buxoro viloyati Romitan tumani Gazli shahrida 12-son musiqa maktabida "Altissa" do‘mbira ansambli va "Shabit" bolalar ansambli faoliyat olib boradi. Markaz mana shu ansambllarni qo‘llab-quvvatlab, ko‘plab konsertlar tashkil qilib, qozoq madaniyatini targ‘ib qiladi. [10] Markazning faoliyati Buxoro viloyatida ko‘plab millatlar tinch-totuv va inoq yashashiga xizmat qiladi.

Buxoro shahridagi “Svetlisa Pol’ska” O‘zbekiston polyak milliy madaniy markazi 2001-yildan buyon erkin faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda markazga Sal’kova Lyubov’ Radjabaliyevna rahbarlik qiladi. O‘zbekiston polyak milliy madaniy markazlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar tashkil etiladi, jumladan: “O‘zbekiston - bizning uyimiz” nomli gala - konsyert, Navro‘z bayrami, Mustaqillik kuni, milliy bayramlarimiz, “Ipak va ziravorlar” ko‘rgazmasi. [11] Markazda yoshlardan iborat «yoshlar qanoti» tashkil etilgan. Shuningdeq, raqs guruhi va folklor ansambli ham erkin faoliyat yuritib kelmoqda.

Polyaklar bayramlarni juda yaxshi ko‘radigan xalq hisoblanadi, o‘z an‘analarga rioya qilib, qadimiy urf-odatlarini saqlab qolishga intiladi. Polsha an‘analarida juda muhim o‘rin tutadigan bayram - bu Rojdestvo hisoblanadi. Rojdestvo arafasida alohida muhit hukm suradigan payt bu- Socheľnik (Polshada Vigilia deb ataladi). Marosimlar, urf-odatlar va e‘tiqodlarning aksariyati ushbu kun bilan bog‘liq. Socheľnik oila davrasida nishonlanadigan Polshadagi eng katta bayram hisoblanadi. Uyni bezash odati bayramona muhitni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Rojdestvo bayramlar o‘tishi bilanoq, "yaselki" deb atalmish, Yevangeliya e‘tiqodiga asoslangan, havaskor teatr tomoshalari uyushtiriladi. Qishloqlarda yog‘ochga bir yulduz o‘rnatib olib uyma-uy yuradigan kishilarni uchratish mumkin, ular qo‘shiqalar aytib, uy egalari bilan hazillashib, bayram kayfiyatlarini ulashadi. Buning uchun, an‘anaga ko‘ra, ular uy egalari bilan «tashrif uchun haq» olishadi. Ilgari, ana shunday kishilarni bayram dasturxonidagi taomlar bilan mehmon qilishardi, biroq hozir ularga aksariyat hollarda pul berilmoqda.[12]

Mamlakatimizda millatlararo totuvlikning takomillashuviga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan milliy-madaniy markazlardan biri bu- “Oftobi So‘g‘diyov” tojik-fors milliy madaniy markazidir. “Oftobi so‘g‘diyov” Tojik-fors milliy madaniy markazi Buxoro viloyat bo‘limi raisi sifatida 2020-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Avezov Rauf Rasulovich

markazni o'z uyidek ko'radi. "Oftobi so'g'diyon" Tojik-fors milliy madaniy markazi 1994-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda markaz a'zolari 20 ga yaqin kishini tashkil etadi.[13] Markaz asosan tojik- fors millatiga mansub bo'lgan, Buxoro shahri, Buxoro viloyatida istiqomat qiladigan, xalqning milliy madaniyati, san'ati, urf-odatlar, an'analarini targ'ib qilish, ularni o'rganish, ularni turli loyihalar, turli tadbirlar tashkil qilish, qolaversa, tojik milliy xalqiga mansub bo'lgan, insonlar, yozuvchilar shoirlar san'atkorlar va boshqa kasb sohiblari bilan o'zaro yaqin aloqalarni bog'lab, ularni faoliyatlarini targ'ibot qilishdan iborat.

Markaz tomonidan oxirgi 2 yil davomida, juda ko'p tadbirlar tashkillashtirildi. Markaz Kamol Xo'jandiyning 700 yillik yubiley marosimida, Jonibek kulol xotirasiga bag'ishlangan tadbir, Loyiq Sherali hayotiga bag'ishlangan turli tadbirlarda, Toshkentdagi Respublika tojik uyi markazi tomonidan tashkil qilingan turli tadbirlarda, anjumanlarda ishtirok etib kelmoqda.[14] Bugungi kunda markaz qoshida "Oftobi Sug'diyon" degan kichik ansambl faoliyat yuritib kelmoqda.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tojik millatiga mansub 61000 dan ortiq aholi Buxoro shaxri va uning atrofida istiqomat qiladi. Viloyat bo'yicha Peshku tumanining Shavg'on qishlog'i bilan, o'sha erda istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub insonlar bilan yaqin aloqalar o'rnatib ish olib bormoqda.[15] Markazning asosiy maqsadi Buxoro viloyatida istiqomat qilayotgan tojik-fors - o'zbek xalqining qadriyatlarini, til, so'zlashuv madaniyatini, urf-odatlarini, an'analarini saqlab keyingi avlodga etkazishdir. "Buxoro viloyatida barcha xalqlar tinch-totuv yashashiga qo'limizdan kelganicha mehnat qilamiz",-deydi markaz rahbari Avezov Rauf Rasulovich.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga e'tibor qaratarkan, "Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni o'zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman",-deya ta'kidlagan edi. Bugun O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda. Ularning har biri o'zining boy madaniyati va milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar. Zero, millatlararo totuvlik va hamjihatlik umumbashariy qadriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Sulaymonov Sh. Millatlararo do'stlik va bag'rikenglik namunasi./Buxoronoma. 2021-yil 4-avgust. №60

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) license. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

2. Baqoyeva Sh. Qardoshlik rishtasi abadiy. /Buxoronoma 2022-yil 19-fevralъ. №14
3. Baqoyeva Sh. Mushtarak maqsadlar hamjihatlikka chorlaydi. /Buxoronoma 2022-yil 6-aprelъ. №26
4. Safarov I. “Vidergeburt” hamkorlikka chorlaydi. /Buxoronoma 2001-yil 11-aprelъ. №29
5. Baqoyeva Sh. “Vidergeburt” – do’stlikning mustahkam ko’prigi. /Buxoronoma 2016-yil 12-oktabrъ. №83
6. Bazarova M., Abdulloeva G. Buxoro viloyatida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar (atlas-kitob). Umrboqiy meros 2022. B.-128-129
7. Xalilov A. “O‘zbekiston – do’stlik va birodarlik ulug‘langan yurt”. /Buxoronoma 2017-yil 4-oktabrъ. №80.
8. Itolmasov Q. Shijoat va fidokorlik bilan. /Buxoro oqshomi 2012-yil 29-noyabrъ. №48
9. Ibrohimov I. O‘zbekiston-umumiy uyimiz. /Buxoronoma 2013-yil 14-avgust. №56
10. Qudratov A. Tojik milliy-madaniy markazi tuzildi. /Buxoro haqiqati. 1990-yil 6-yanvarъ.
11. Baqoyeva Sh. Madaniy aloqalar rivoji yo‘lida. /Buxoronoma 2021-yil 15-noyabrъ. №91
12. Toshev S. Qatrada quyosh aksi. /Buxoronoma 2013-yil 16-fevralъ. №14.
13. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
14. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;
15. Temirov F. PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 2 Issue: 01 | 2022
16. Temirov F. Of the journalistie work of Sadridin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol.6, Iss.1. Pages,12-17. January-March 2022
17. UMAROV B. ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 94-100.
18. ogli Umarov B. B. FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH //Journal of Central Asian Social Studies. – 2021. – T. 2. – №. 02. – C. 127-135.
19. Umarov B. НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
20. Bakhronovna R. D. STUDYING SOURCES REGARDING CENTRAL ASIA IN EUROPE (XIX-EARLY XX CENTURIES) //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – C. 1-3.
21. Rasulova D. B. Issues of study of Central Asia in the French historiography of the XIX century //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – C. 79-90.